

MORFEMALI KONTRAKTSIYA “间代” jiān dài TURINING IFOADALANISHI HAIQDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352190>

ELMUROTOV Dovurbek

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

This article is devoted to the study of morphemic contraction “间代” jiān dài in modern Chinese.

Xitoy tilining leksik fondi doimiy o'zgarishlar jarayonidadir. Ba'zi so'zlar iste'moldan chiqib, leksik tarkibni to'ldiruvchi yana yangi so'zlar paydo bo'lmoqda. Terminologiyaning rivojlanishi XIX asrning oxiridan boshlandi va XX asrda yuqori bosqichga ko'tarildi. Natijada uch, to'rt va besh bo'g'inli ko'pgina terminlar hosil bo'lgani ma'lum. Murakkab so'zlarga qarama-qarshi ravishda paydo bo'lgan tendensiya – murakkab so'zlarni qisqartirish (morfemali kontraksiya) hodisasida ko'p bo'g'inli so'zlarni aksariyat holatlarda ikki bo'g'inli shakli hosil qilinadi¹. Xitoy tilida qisqartmalar sonining tez sur'atda oshib borayotgani leksik birliklarni tavsiflash va o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Morfemali kontraksiya hodisasi rus tilshunolaridan dastlab Y.D.Polivanov² va I.D.Klenin³ tomonidan o'rganilgan.

Kontraksiya — ko'p bo'g'inli leksik birliklarning qisqartirilishi, ya'ni ko'p bo'g'inli so'z yoki so'z birikmasi tarkibidan muayyan morfemalarni olib tashlanishi natijasida qisqartirilgan nom yoki nominatsiyaning hosil bo'lish jarayoni demakdir. Kontraksiya orqali hosil bo'lgan so'z — murakkab qisqartirilgan so'z hisoblanadi. Morfemali kontraksiya hodisasi abbreviatsiyaning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, xitoy tilida boshqa til sistemalaridan farqli ravishda elementar birliklarning morfologik va semantik xususiyatlariga tayanadi, shuning uchun chuqur va kengroq chegaralarni qamrab oladi. Qisqartma so'zlarning yuzaga kelishi vatqni tejash zaruriyati hamda maksimal miqdordagi ma'lumotni minimal hajmli vositalar orqali yetkazishga intilish bilan bog'liq. Morfemali kontraksiyaning turli usullari mavjud. Murakkab bo'g'inli so'zlarda va kommunikativ so'z birikmalarida morfemalarning qisqarish usullari ma'no ifodasi va kombinatsion imkoniyatlardan kelib chiqadi. Zamonaviy xitoy tilida morfemali kontraksiyaning to'rt asosiy turi ajratiladi⁴: 缩合 suō hé “qisqatirish”, 节略 jié lüè “tushirish”, 间代 jiān dài “almashtirish bilan qisqatirish”, 统括 tǒng kuò “umumlashtirish”.

Xususan, morfemali kontraksiyaning 间代 jiān dài “jiandai”, ya'ni almashtirish bilan qisqatirish turi yordamida joylar, shaharlarning nomlari, shuningdek, tilga mustahkam kirib qolgan atamalar tuzilgan. Bunday usulda hosil qilingan qisqatirishlar barqaror va o'z-o'zidan o'zgara olmaydi. Qisqatirishning bunday turi ikki guruhga ajratiladi⁵:

I. O'rinni egallash.

Birinchi guruh “o'rinni egallash” deb nomlanib, asosan, geografik nomlarda ishlatiladi. Bu turdagi qisqatirishlar geografik va tarixiy omillar ta'sirida paydo bo'lgan. Masalan, 山东 shāndōng Shandun shahrini 鲁 lǔ Lu deb ham nomlash mumkin. 南京 nán jīng Nankin shahrining nomi 宁

¹ И. Д. Кленин Морфемная контракция и ее типы в современном китайском языке // Вопросы языкознания. – М.: “Наука”, 1975. – С. 89.

² А. И. Иванов, Е.Д.Поливанов Грамматика современного китайского языка. – М.: “УРСС”, 2003. С. 34–35.

³ И. Д. Кленин Морфемная контракция и ее типы в современном китайском языке // Вопросы языкознания. – М.: “Наука”, 1975. – С. 89-100.

⁴ Li Xinzun, Xun Liangfen. Liuyu shuo zi.- 上海, 1986. - 9 页

⁵ Li Xinzun, Xun Liangfen. Liuyu shuo zi.- 上海, 1986. -320, 9 页

ning deb ham ataladi. 广州 guǎng zhōu Guanjou shahri – 穗 suì Sui, 湖南 hú nán Hunan shahri – 湘 xiāng kabi nomlar bilan ataladi.

II. Qisqartirilgan nomlar.

Qisqartirilgan nomlar – bu qisqartirishlarning bir turi bo‘lib, dastlabki so‘z yoki so‘z birikmasiga bevosita aloqador. Ular eng ko‘p tarqalgan va strukturasi jihatidan turli-tumandir. Bu guruhga mintaqalar, mamlakatlar, shaharlar, otlarning qisqartirilgan nomlari kiradi.

1. Shaharlar, mamlakatlar, mintaqalarning qisqartirilgan nomlari.

Masalan, 天津 tiānjīn – 津 jīn Tianjin, ushbu misolda 天津 so‘zining morfemasi tushirilib, 津 morfemasi qoldiriladi. Tianjin shahrini 津 deb ham nomlash mumkin. 北京 běijīng– 京 jīng, ushbu misolda Pekin shahrining nomi 北京 qisqartirilganda 京 ko‘rinishiga o‘tadi. 京 azaldan poytaxt ma‘nosini bildirgan. Demak, ushbu morfema asosiy semantik ma‘noni saqlab qoladi. 青海 qīng hǎi – 青 qīng; Chinghay shahri ushbu ko‘rinishda qisqaradi.

Boshlang‘ich morfemani oxirgi morfema bilan birikishidan iborat bo‘lgan qisqartirishlar: 中华人民共和国 zhōng huá rén mín gòng hé guó Xitoy Xalq Respublikasi – 中国 zhōng guó Xitoy ko‘rinishida qisqarishi mumkin, shu kabi 法兰西共和国 fālánxī gòng hé guó Fransiya Respublikasi – 法国 fǎguó Fransiya ko‘rinishida qisqaradi;

Birinchi so‘zning boshlang‘ich morfemasini oxirgi so‘zning birinchi morfemasi bilan bog‘lash: 苏维埃社会主义共和国联盟 sū wéi āi shè huì zhǔ yì gòng hé guó lián méng– 苏联 sūlián SSSR; Ushbu misolda 苏维埃社会主义共和国 birikmasining 苏 morfemasi va 联盟 so‘zining 联 morfemasi birlashib yuqoridagi qisqartirilgan ko‘rinishga kelgan.

Faqat birinchi so‘z qoladigan qisqartirish: 罗马尼亚人民共和国 luó mǎnì yà rén mín gòng hé guó Ruminiya Xalq Respublikasi – 罗马尼亚 luó mǎnì yà Ruminiya; demak, bu misolda Ruminiya 罗马尼亚 so‘zi yakka holda qo‘llanilishi mumkin.

Mamlakatlar nomini qisqartirishda ikki holatni ta‘kidlab o‘tish kerak. Birinchidan, birinchi so‘zdan iborat bo‘lgan qisqartirishlar eng ko‘p uchraydi. Bu “birinchi so‘z” – mamlakatning tarixan o‘rnashib qolgan nomi bo‘ladi, u to‘liq nomlanishda asosiy bo‘lib, go‘yo to‘liq nomning o‘rnini bosadi. Ikkinchidan, mamlakatlar, mintaqalarning nomlari bitta morfemagacha qisqartirilishi mumkin: 中国 zhōng guó – 中 (华) zhōng (huá) Xitoy, 美国 měi guó – 美 měi AQSh, 美洲 měi zhōu – 美 měi Amerika.

Bunday qisqartirishlarda an‘anaga ko‘ra ularni tushunishda anglashilmovchiliklar yuzaga kelmaydi.

2. Marshrutlar, aloqa yo‘nalishlari nomlarini qisqartirish.

成都 chéng dōu – 昆明 kūnmíng – 成昆线 chéng kūn xiàn Chendu-Kunmin yo‘nalishi; ushbu misolda Chendu 成都 chéng dōu so‘zining 成 morfemasi va Kunmin 昆明 kūnmíng so‘zidagi 昆 morfemasi birlashib 成昆线 shaklida qo‘llaniladi va ma‘no o‘zgarmaydi. 北京 běijīng – 广州 guǎng zhōu – 京广线 jīng guǎng xiàn Pekin-Guanchjou yo‘nalishi; 京广线 qisqartirishi ham xuddi shu asosda yuzaga kelgan.

Misollardan ko‘rinib turganidek, bu holda shaharning to‘liq nomini qaysi komponent almashtirishi borasida yagona talablar yo‘q.

3. Ismlarni qisqartirish.

1) Lavozim yoki boshqa xaraktistikalar bo‘yicha qisqartirish: 习近平主席 xí jìn píng zhǔxí – 主席 zhǔxí – rais, ya‘ni Rais Sijinpín uchragan o‘rinlarda 主席 zhǔxí deb qo‘llash ham mumkin. Quyidagi misolning mohiyatini ham xuddi shu tariqa tushunish mumkin: 周恩来总理 zhōuēnláizǒng lǐ Bosh vazir Zhouenlai – 总理 zǒng lǐ – bosh vazir; Yuqoridagi misollardan ayonki,

yuqori lavozimdagi shaxslarning ismini aytmalik mumkin. Lavozim nomining qo‘llanilishi tushunmovchilikni yuzaga keltirmaydi.

2) Familiya yoki ismni qisqartirish: 王廷山 wáng tíng shān – Wang Tingshan misolidan ko‘rinadiki, ismni qoldirib, familiyani aytish mumkin yoki 老王 – lǎo wáng – muhtaram Wang, ya‘ni familiyani tushirib, ismni aytish mumkin.

Qisqartirish har qanday til rivojlanishining umumiy qoidalaridan biri sanaladi. Uning mohiyati maksimal miqdordagi ma‘lumotni (ma‘noviy ifoda) tilning moddiy qobig‘idan (tovush va grafik shakl) minimal foydalangan holda yetkazishni ta‘minlash, ya‘ni tilning kommunikativ vazifasining samaradorligini oshirishdir. Murakkab terminlarni qisqartirish semantik chegaralash orqali erishilib, nisbatan muhim semantik ma‘noga ega bo‘lgan komponentlarni tushirib qoldirmaslikni taqozo etadi. Shu tariqa tilning kommunikativ imkoniyatlarini oshirish uchun ba‘zi elementlarni tushirish mumkinligi berilayotgan axborotning qiymatini yo‘qotmay keng shakldan qisqargan shaklga o‘tishda ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)

1. Xashimova S.A. Xitoy tilida so‘z yasalishi. – T.: 2012. – 250 b.
2. Горелов. В.И. Лексикология китайского языка. – М.: Просвещение, 1984. – 370с.
3. Фролова О. П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. – Новосибирск, 1981. – 132с.
4. Кленин И. Д. Морфемная контракция и ее типы в современном китайском языке // Вопросы языкознания. – М.: “Наука”, 1975. – С.89-99.
5. Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – М.: Восток и запад, 2005. 320с .
6. Li Xinzun, Xun Liangfen. 流语说字. –上海, 1986. 410 b.
7. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
8. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
9. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (p. 361).
10. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевленных существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
11. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
12. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
13. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
14. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
15. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.

16. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
17. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
18. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
19. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
20. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
21. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
22. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019